

**JIGAR ANATOMIYASI, PATALOGIYASI HAMDA JIGARDA  
UCHRAYDIGAN KASALLIKLAR: JIGAR SERROZI HAMDA JIGAR  
SERROZIDA KUZATILADIGAN MORFOFUNKSIONAL O‘ZGARISHLAR**

**Asfandiyorov Javodbek Mirzaali o‘g‘li**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Davolash fakulteti talabasi

E-mail: [javodbek01@mail.ru](mailto:javodbek01@mail.ru)

**Fozilov Nurillo Bahromjon o‘g‘li**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Davolash fakulteti talabasi

E-mail: [fozilovnurillo90@gmail.com](mailto:fozilovnurillo90@gmail.com)

**Tojiddinov Davronbek Ulug‘bek o‘g‘li**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Davolash fakulteti talabasi

E-mail: [tojiddinovdavronbek041@gmail.com](mailto:tojiddinovdavronbek041@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

Jigar anatomiyasi hamda morfofunktsiyasini o‘rganish davomida biz ushbu organing organizmimizning naqadar zarur ekanligini ko‘rishimiz mumkin, misol qilib oladigan bo‘lsak jigarini o‘rganish davomida biz ushbu organda uchraydigan kasalliklarni ham o‘rganamiz.

**Kalit so‘zlar:** Gepototsit, darvoza vena, prizmatik hujayra, ajoyib to‘r, gepatit, jigar serrozi

**KIRISH**

Fan-texnika yutuqlari yangilangan sari kasalliklar ham yangilanib borayotgani bugungi kunda hammaga ma‘lum. Misol uchun jigar kasalliklari yildan yilga yosharib borayotgani ham keltirib otishimiz mumkin. Bunga insonlarning noto‘g‘ri turmush

tarzi sabab bo‘lib kelmoqda. Mavzuni o‘rganish mobaynida jigarining anatomik va morfo-funksional tuzulishini organish bilan bu kasallikni kelib chiqishini, sababini o‘rganamiz hamda biz talaba yoshlarlar bu kasallikni kelib chiqish sababi va davoprofilaktikasini o‘rganamiz.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jigar organizmning markaziy biokimyoviy laboratoriyasi bo‘lib, turli-tuman funksiyalarni bajaradi; Jigar bo‘lmasa, odam, hayvon yashay olmaydi. Jigar bir sutkada 600—700 g o‘t (safro) ishlab chiqarib, ovqat hazm bo‘lishida va oziq moddalarning ichakdan qonga so‘rilishida muhim rol o‘ynaydi, oqsillar, yog‘lar va uglevodlar almashinuvida qatnashadi. Bundan tashqari, moddalar almashinuvida hosil bo‘ladigan yoki tashqaridan kirgan zaharli moddalarni zararsizlantirib, himoya funksiyasini bajaradi. Jigarining maxsus yulduzsimon hujayralari fagotsitozga va anti-telolar hosil qilishga qodir. Jigar qonni yig‘ib tura oladi. Jigar embrional rivojlanishda qon elementlari va gemoglobin hosil qilishda ham ishtirok etadi. Organizmdagi jami qonning 1/5 qismi jigar tomirlariga sig‘ishi mumkin. Qondagi ortiqcha suv qisman jigarda ajralib chiqib, o‘t va limfa hosil bo‘lishiga ketadi. Jigar o‘tni uzluksiz ishlab, o‘zining o‘t yo‘li orqali chiqaradi; o‘n ikki barmoq ichakka o‘t kirishi ovqatlanish vaqtida boshlanib, me‘da ovqatdan bo‘shamaguncha davom etadi. Boshqa vaqtda esa umumiy o‘t yo‘lining halqasimon muskuli (sfinkteri) qisqarib, shu yo‘lning teshigini berkitib turadi. Jigarda hosil bo‘ladigan o‘t pufagiga kirgach, quyulib qorayadi, chunki undagi suv va qisman boshqa ba’zi moddalar o‘t pufagi devoridan qonga o‘tadi.

Jigar sirrozi - jigarining surunkali rivojlanib boradigan kasalligi. Bunda jigar to‘qimasi yallig‘lanib, uning bir qismi biriktiruvchi to‘qima bilan almashinadi. Jigarining o‘tkir yallig‘lanishi ya’ni gepatitda, uning B, C, D shakllarida, o‘tkir gepatit surunkali gepatitga aylanayotganda, bezgak, sil, zaxm, brutsellyoz kabi yuqumli kasalliklarda, o‘t pufagi va o‘t yo‘llarining surunkali yallig‘lanishida, turli kimyoviy moddalardan muntazam zaharlanishda, shuningdek, alkogolizmda va boshqa

sabablarga ko‘ra paydo bo‘ladi. Jigar sirrozi — sekin rivojlanadigan surunkali kasallik. Jigar sirrozi turlicha namoyon bo‘ladi va u xastalikning qaysi shaklida kechishi hamda davriga bog‘liq bo‘ladi. Tekshirganda jigarining qattiqlashgani va funksiyasining buzilganligiga qaramay, kishi uzoq vaqt hech qanday xastalik alomatini sezmay yurishi mumkin. Kasallik zo‘rayganda bemor darmonsizlanadi, ozib ketadi, ishtahadan qoladi, kekiradi, ko‘ngli ayniydi, ba‘zan qusadi, ichi ketadi yoki qotadi, qorni dam bo‘ladi, tana xarorati ko‘tariladi, qorin bo‘shlig‘ida suyuqlik to‘planishi natijasida u ko‘tariladi (istisqo), burni qonaydi, badani qichishadi, ba‘zan sarg‘ayadi. Kamqonlik avjiga chiqadi, jigari va ayniqsa talog‘i kattalashadi va qattiqlashadi.

Davoni shifokor tayinlaydi. Jigar sirrozi uzoq vaqt davolanadi, kasallik zo‘rayganda bemorni darhol kasalxonaga yotqizish kerak. Parhezga qat‘iy rioya qilishning ahamiyati katta. Bemorga, asosan, yengil hazm bo‘ladigan, qand, oqsil va vitaminlar (ayniqsa, C vitamin va B gruppaga) boy sutli va o‘simlik ovqatlar beriladi. Tvorog (oson hazm bo‘ladigan oqsillarga ega), yog‘siz go‘sht, baliq, shuningdek, ozgina sariyog‘ bilan qaymoq yoki smetana iste‘mol qilish mumkin; spirtli ichimliklar ichish qat‘iy taqiqlanadi. Jigar sirrozining avj olishiga yo‘l qo‘ymaydigan dorilar buyuriladi. Jigar sirrozini davolashda avvalo unga sabab bo‘ladigan omillarni bartaraf etish muhim. Jigar sirroziga olib kelgan infeksiya aniqlansa, uni tugatish choralari ko‘riladi. Jigar sirrozining oldini olish uchun mehnat va turmush sharoitini sog‘lomlashtirish, alkogolizmga qarshi kurash olib borish kerak.

## **NATIJARLAR**

Hozirgi kunda tibbiyot sohasida jigar anatomiyasi va morfofunksiyasi haqida ko‘proq malumot berish, kasallikni ko‘payib borishini oldini olish, kundan kunga yosharib borayotgan bu kasallik haqida insonlarga ko‘proq ma‘lumot berish hamda kasallikga chalingan bemorlarni davolashni yangicha usullarini o‘ylab topish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi

Olib borayotgan ishning vazifalari quyidagilar:

- Jigar anatomiyasi va patologiyasi hamda jigarda uchraydigan kasalliklar: jigar serrozi hamda jigar serrozida kuzatiladigan morfo-funksional o‘zgarishlarni o‘rganish;
- Jigarning funksional anatomiyasi haqida keng ma’lumotlar olish;
- Kasalxonadagi jigar kasalligi bo‘yicha shikoyat qilib kelgan bemorlarni o‘rganish va davolash choralarini bilan tanishish.

## MUHOKAMA

Jigar inson organizmidagi qon ishlab chiqaruvchi, uni tozalovchi eng muhim organ. Shu bois ham ushbu tana a’zosi bilan bog‘liq sirroz va boshqa terminal jigar kasalliklari dunyo tibbiyotida og‘riqli muammolardan biri sifatida qaraladi.

Eng yomoni, mazkur xastalik O‘zbekistonning mintaqaviy patologiyasi, hududimizda ko‘p uchraydigan kasalliklar sirasiga kiradi. Ushbu dardni davolashning eng maqbul chorasi esa a’zo ko‘chirib o‘tkazish, ya’ni jigar transplantatsiyasidir.

Shu boisdan akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va Respublika virusologiya ilmiy tekshirish instituti o‘rtasidagi hamkorlik memorandumini doirasida diffuz jigar kasalligi bilan kasallangan bemorlar sonini tahlil qilish yo‘lga qo‘yilgan.

Natijada har yili O'zbekistonda ushbu kasallikning klinik ko‘rinishlari bilan Respublika virusologiya ilmiy tekshirish instituti klinikasining maxsus bo‘limida 5000 nafardan ziyod bemorlar ushbu kasallik bo‘yicha davolanadi. Ulardan 500 nafari esa jigar transplantatsiyasiga potansial muhtoj bemorlardir.

Aytish kerak, avvallari bu kabi bemorlarning aksariyati ushbu turdagi amaliyotlarni o‘tkazish uchun Hindiston, Turkiya, Isroil, Germaniya kabi mamlakatlarga borishga majbur edi. Biroq O'zbekistonda ham transplantologiyaning mazkur yo‘nalishi ham yildan yilga rivojlanib bormoqda.

## XULOSA

Mavzuni yoritib berishda keng ko‘lamli izlanish olib bordim va bu izlanishlar natijasida o‘zim bilmagan bazi bir narsalarni bilib oldim. Ustozlarim bilan keng muhokama olib borish natijasida quyidagi xulosalarga keldim:

- Jigar anatomik jihatdan o‘ta murakkab a‘zo hisoblanib uni sun‘iy qilishni iloji yoq ekanligi;

- Jigarning morfo-funksional o‘zgarishlari natijasida boshqa hayotiy muhim organlarga sezilarli darajada tasir ko‘rsatishi;

- Jigar serroziga hozirgi kunda maxsus samarali davo chorasi o‘ylab topilmaganligi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Ahmedov A.G, Mirsharapov O‘.M, Sagatov T.A “Anatomiya” darslik. Tom I-II. Toshkent 2018 y.
2. Sapin M.R “Анатомия человека” Том. I-III Moskva 2014 y.
3. Sinelnikov R.O “Атлас анатомия человека” Том. I-III Moskva 1990 y.
4. Internet saytlari : <http://www.ziyonet.uz>